

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.U.Mahmudov <i>Zicrona caerulea</i> (Heteroptera) turining Farg'ona vodiysidagi ekologik xususiyatlari va biologik nazoratdagi ahamiyati.....	119
D.R.Kapizova, A.N.Jumayeva, Sh.I.Temirova, I.I.Zokirov Entomofaglardagi morfologik moslanishlar haqida (koksidlir entomofaglari misolida).....	123
N.O.Odilov, M.V.Obidov Foydali mikroorganizmlarning o'simlik biomassasiga ta'sirini baholash.....	127
N.B.Fayziyeva, A.H.Vaxobov Loviya oddiy mozaikasi virusi (LoMV) ta'sirida transpiratsiya intensivligining fiziologik tahlili.....	137
Sh.X.Yusupova, G.M.Zokirova, K.H.G'aniyev, I.I.Zokirov No'xat shirasi (<i>Acyrtosiphon pisum</i>) mavsumiy populyatsiya dinamikasini gibril stokastik-deterministik modellashtirish.....	144
E.A.Botirov Noctuini tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae) xilma-xillik ko'rsatkichlarining ekotopik tahlili.....	150
S.S.Umarov Farg'ona vodiysida kulrang g'oz <i>Anser anser</i> (Linnaeus, 1758) (Aves: Anatidae) ning tarqalishi va qishlovchi populyatsiyalari holati.....	155
E.A.Botirov Farg'ona vodiysi Noctuini tunlamlarining (Lepidoptera, Noctuidae) rivojlanish sikli, fenologiyasi va ozuqa o'simliklari bilan trofik aloqalari.....	161

GEOGRAFIYA

O.I.Abdug'aniev, E.G'.Maxkamov, KH.Abdullaeva Farg'ona viloyatida agroturizmni rivojlantirishda tabiiy sharoit va rekreatsion infratuzilmaning ahamiyati.....	167
D.G'.Mo'minov Landshaft va undan foydalanish imkoniyatlarining hududiy jihatlari (Farg'ona viloyati misolida).....	176
M.R.Qoriyev, G.R.Toshmirzayeva Global iqlim ilishini tuproq qurg'oqchiligiga ta'siri (Shimoliy Farg'ona tuproqlari misolida).....	182
I.I.Muxitdinov Farg'ona viloyatining umumiy kriminogen vaziyati va uning hududiy farqlari.....	189
B.B.Umarov Andijon viloyati geoekologik holatini geografik axborot tizimlari yordamida baholash.....	194
I.Z.Akaboyev, Z.Y.Ayubova, D.B.Ro'zmatov Chust tumani aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish.....	198
E.A.Soliyev, M.A.Kosimov, I.Z.Akaboyev Global iqlim o'zgarishi sharoitida Farg'ona vodiysi iqlimidagi o'zgarishlar.....	205
B.X.Kamolov Ekoturistik hududlarning imkoniyatlarini GAT texnologiyalari asosida aniqlash va kartalashtirish (Namangan viloyati misolida).....	211
N.S.Pardaev Surxondaryo viloyati mehnat resurslari tarkibidagi o'zgarishlar.....	217
A.F.Raxmatov Ekologik zo'riqishni kamaytirish orqali qishloq xo'jaligida barqarorlikni taminlash.....	222
B.Y.Zikirov, H.Z.Tilovberdiyeva Sirdaryo viloyatida yashil maydonlarning hududiy jihatlari va tahlili.....	226
O'.K.Nargizaxon Diniy turizmni rivojlantirishda ziyoratgohlarning o'rni va ahamiyati.....	232
O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov Ekologik karkas – jamiyatning barqaror rivojlanish strategiyasining asosi sifatida.....	237
X.A.Abdvaluiev Aholi zichligini aniqlashda qo'llaniladigan an'anaviy usullar.....	249
G'.Z.Tovbayev Sirdaryo viloyati o'simlik qoplamining NDVI ko'rsatkichlar va uning gat tahlili.....	256



UO'K: 331.5(575.13)

SURXONDARYO VILOYATI MEHNAT RESURSLARI TARKIBIDAGI O'ZGARISHLAR**ИЗМЕНЕНИЯ В СОСТАВЕ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ****CHANGES IN THE STRUCTURE OF LABOR RESOURCES OF THE SURKHANDARYA REGION**

Pardaev Nodirbek Saidahmadovich 
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan aholi hududiy tarkibidagi mehnat resurslari soni, uning o'zgarishi va O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati misolida tahlil etilgan. Maqolada viloyatning o'ziga xos demografik salohiyati, undagi ishsizlik darajasi ma'muriy tumanlar doirasida tahlil etilgan. Viloyat mehnat resurslari salmog'i bo'yicha uning respublikada tutgan o'rni statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Mazkur tadqiqot ishida viloyat mehnat resurslari tarkibidagi iqtisodiy faol va nafaol aholining iqtisodiyot tarmoqlarida bandligi va ishsizlik darajasi tahlilida asosiy e'tibor viloyat mehnat resurslarining yillar davomida o'zgarishi asosidagi hududiy taqsimlanishiga qaratilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется численность трудовых ресурсов в территориальной структуре населения, имеющая важное значение для жизни общества, ее изменения и на примере Сурхандарьинской области Республики Узбекистан. В статье анализируется удельный демографический потенциал области, уровень безработицы в ней в рамках административных районов. На основе статистических данных изучается место области в республике по доле трудовых ресурсов. В данной научно-исследовательской работе основное внимание уделено анализу занятости и уровня безработицы экономически активного и неактивного населения в структуре трудовых ресурсов области по отраслям экономики и анализу уровня безработицы в трудовых ресурсах области по годам.

Abstract

This article analyzes the number of labor resources in the territorial structure of the population, which is important for the life of society, its changes and on the example of the Surkhandarya region of the Republic of Uzbekistan. The article analyzes the specific demographic potential of the region, the level of unemployment in it within the administrative districts. Based on statistical data, the place of the region in the republic by the share of labor resources is studied. In this research work, the main attention is paid to the analysis of employment and the level of unemployment of the economically active and inactive population in the structure of labor resources of the region by sectors of the economy and the analysis of the level of unemployment in the labor resources of the region by years.

Kalit so'zlar: aholi soni, mehnat resurslari, aholi takror barpo bo'lishi, ishchi kuchi, iqtisodiy nafaol aholi, iqtisodiy faol aholi, ishsizlik.

Ключевые слова: население, трудовые ресурсы, воспроизводство населения, экономически активное население, рабочая сила, экономически неактивное население, безработица.

Key words: population, labor resources, population regeneration, workforce, economically inactive population, economically active population, unemployment.

KIRISH

Mehnat resurslari tarkibi jamiyat hayoti uchun ham muhim omil sanalib, ayni bir paytning o'zida insonlar o'z hayoti uchun zarur narsalarni yaratadilar, xizmat ko'rsatadi va ishlab chiqarish jarayonini ham rivojlantiradi. Shu nuqtayi nazardan, har qaysi mamlakat uchun mehnat resurslari soni va salmog'idagi o'zgarishlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholini ish bilan bandligini ta'minlash, ishsizlikni pasaytirish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish kabi masalalarga juda katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyatli samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 22-dekabrda

1011-son "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash shu jumladan, uy-xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2018-yil 20-oktabrdagi 841-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi bandligini oshirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan [9]. Bu borada, mehnat resurslari soni yil sayin oshib borayotgan hamda ishsizlik darajasi respublikada eng yuqori o'rinlarda turuvchi mamlakatimizning janubiy gavhari hisoblangan Surxondaryo viloyati mehnat resurslaridan samarali foydalanishga doir tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mehnat resurslarining shakllanishi va rivojlanishi hamda unga ta'sir etuvchi ijtimoiy demografik omillar qator xorij va MDH olimlari - J.Graunt, A.Smit, J.M.Keyns, V.Leontev, G.Bekker, R.Xoll, P.Deymond, D.Mortensen, E.P.Cherneva, K.Pissarides, E.V.Kasimovskiy, X.Raynerlar G.Strumilin, D.Breev, V.Bulanov, B.Genking, V.A.Borisov, A.Kokina, J.Cheng, P.Litvyakov, A.Kotlyar, A.G.Vishnevskiy, L.O.Bello V.E.Gimpelsonlar tomonidan tadqiq etilgan [2].

Aholi bandligi, mehnat resurslari, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, mehnat resurslarini shakllanishi va demografik jarayonlarga oid ilmiy tadqiqotlar bilan respublikamizda M.Q.Qoraxonov, M.P.Mullajonov, A.A.Abdug'aniyev, Q.X.Abduraxmonov, E.A.Axmedov, O.B.Ata-Mirzayev, A.S.Soliyev, B.X.Umrzakov, A.A.Qayumov, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva, R.B.Qodirov, I.Otajonov, G.Utepova, L.Z.Ibragimov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Bundan tashqari, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham bu borada ma'lum ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, I.Safarov, M.Erdonov, M.Yangiboyev, A.A.Islomov, N.Yuldashevlar o'z ilmiy ishlarida aholi mehnat resurslari, ularning salohiyatlari va ulardan foydalanish masalalari yuzasidan o'z tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ularning ilmiy izlanishlari respublika aholisi va mehnat resurslari shakllanishi ilmiy-nazariy jihatlariga bag'ishlangani bilan e'tiborga loyiqdir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Jamiatning rivojlanishi va farovonligi ko'p jihatdan uning mehnat resurslariga, ya'ni odamlarning ishlash qobiliyatiga bog'liq. Mehnat resurslari jamiyat hayotining poydevorini tashkil etadi. Ularning samarali ishlatilishi va rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotni rivojlantiradi, balki ijtimoiy barqarorlik va jamiyatda adolatni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi ayrim nazariy tushunchalar mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi. "Mehnat resurslari", "ish kuchi" kabilarni shunday tushunchalar jumlasiga kiritish mumkin [1]. Mehnat resurslari dunyo miqyosida aksariyat davlatlar tomonidan deyarli bir xil tasniflanadi. Mehnat resurslarini mehnatga layoqatli yoshdagi aholi hamda iqtisodiyotda band bo'lgan o'smirlar va nafaqaxo'r katta yoshdagi kishilar tashkil qiladi. Ya'ni unga ko'ra mehnat resurslari ikkita qismga ajratilib, ular iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol aholiga bo'linadi. Mustaqillik yillari O'zbekiston Respublikasida ham Xalqaro Mehnat Tashkiloti tavsiya etgan aholini tasniflash tizimiga o'tildi, unga ko'ra aholini tizimiy taqsimlashda mamlakat mehnat resurslari iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol qismlarga ajratiladigan bo'ldi. Mehnat resurslari aholining o'z ruhiy fiziologik va aqliy sifatlari bilan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga yoki xizmatlar ko'rsatishga qodir bo'lgan mehnatga layoqatli qismidir. Mehnat resurslari tarkibiga faqat iqtisodiy faol aholigina emas, shu bilan birga hozirda ishlamayotgan va ish qidirmayotgan mehnatga qobiliyatli shaxslar kiradi [8].

Aholisi 37 million (2024 y.) kishidan ortiq O'zbekiston qudratli mehnat resurslari salohiyatiga ega. Mehnat resurslari statistik ma'lumotlarga ko'ra mamlakatda 19739,6 ming kishini (2023 y.) yoki mamlakat jami aholisiga nisbatan 54,7 foizdan ko'prog'ini tashkil etgan. Shu jumladan, respublikada mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi 19585,4 ming kishi bo'lib, mehnat resurslariga nisbatan 99,5 foizni, mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar esa 95,1 ming kishi bo'lib, mehnat resurslariga nisbatan 0,5 foizini tashkil etadi. Ushbu raqamlar respublikada mehnat resurslar salmog'ini yuqori darajada ekanligini ko'rsatib turibdi [10].

Mehnat resurslarini hududiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, A.Soliyev "Aholi va mehnat resurslari bilan bog'liq tadqiqotlarda hududiylik va komplekslilik asosiy rol o'ynaydi" [6] deb o'z fikrini bildirgan. Mehnat resurslari salohiyati borasida respublikada o'z o'rniga ega viloyatlardan biri bu Surxondaryo viloyatidir. Aholisi 2,87 mln (2024 y.) kishidan ortiq Surxondaryo viloyati o'zining yetarli mehnat resurslari salohiyatiga ega [14]. Viloyat mehnat resurslari yillar bo'yicha o'sib borgan bo'lib, 2010-yilda 1174,1 ming kishini (56,8 foiz), 2015-yilda 1379,2 ming kishini (57,2 foiz) tashkil etgan bo'lsa 2023-yilga kelib ushbu raqamlar 1489,6 ming kishidan (54,4 foiz) ortiqroqni

GEOGRAFIYA

tashkil etdi. Mehnat resurslar soni jihatidan Respublika mehnat resurslari orasida ham ulushi yil sayin ortmoqda (1-jadval).

Surxondaryo viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi mehnat resurslariga nisbatan 99,6 foiz bo'lib, respublika o'rtacha ko'rsatkichiga deyarli tengdir. Yuqoridagi sonlar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyat mehnat resurslari soni yillar davomida o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Biroq, viloyat jami aholisiga nisbatan hisoblaganda so'nggi yillarda mehnat resurslari kamayotganini ko'rish mumkin. Sababi esa so'nggi yillarda viloyat aholisi ulushida yosh bolalar salmog'i yuqori bo'lib borganligidan jami aholi orasida mehnat resurslarida kamayish kuzatilishiga sabab bo'lgan. Yuqoridagi raqamlarda viloyatning tumanlar kesimida mehnat resurslari salmog'i eng yuqori tumanlarga Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on tumanlari eng oldingi o'rinlarni egallaydi. Ushbu tumanlar viloyat bo'yicha aholi soni ko'p tumanlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ham bu tumanlarda mehnat resurslari salmog'i qolgan tumanlarga nisbatan yuqori.


1-jadval

O'zbekiston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida 2010-2023 yillarda mehnat resurslari (ming kishi/foiz)

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2013 y.	2016 y.	2019 y.	2022 y.	2023 y.
O'zbekiston Respublikasi	16726,0	17814,1	18488,9	18949,0	19517,5	19739,6
Surxondaryo viloyati	1174,1	1320,2	1403,1	1456,9	1468,9	1489,6
Respublika mehnat resurslariga nisbatan foiz (%) da	7,01	7,41	7,58	7,68	7,52	7,54

Izoh: Jadval O'z.R. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mehnati resurslari soni ham viloyat bo'yicha turlicha taqsimlangan. Tabiiy sharoiti yaxshi bo'lgan hududlarda aholi soni ko'p va shunga monand holda mehnat resurslari salmog'i ham yuqori hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichni viloyat mehnat resurslarining tumanlar bo'yicha zichligida ham ko'rish mumkin.



1-rasm. Surxondaryo viloyati tumanlarida mehnat resurslari zichligi (2023-yil).

Surxondaryo viloyatida mehnat resurslari zichligi har bir km² hududga o'rtacha 73 kishini tashkil etadi. Bu borada eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahriga to'g'ri kelib, har bir km² hududga 3145 kishini tashkil etadi. Bu albatta shahar hududining kichikligi va aholi soni ko'p ekanligi bilan

izohlanadi. Tumanlarda esa eng yuqori zichlik Angor, Denov, Oltinsoy hamda Sho'rchi tumanlariga, aksoincha eng past zichlik esa Boysun tumaniga to'g'ri keladi (1-rasm).

Mehnat resurslarining ikkita yirik tarmog'i bo'lgan iqtisodiy faol va iqtisodiy nafaol aholi tarkibi viloyatda o'ziga xosdir. Mehnat resurslaridan foydalanishning asosiy ko'rsatkichi ularning milliy iqtisodiyotida ish bilan bandligida ifodalanadi. Ish bilan bandlik – bu iqtisodiy faol aholining qonun hujjatlariga muvofiq, daromad keltiradigan faoliyatga ega bo'lishidir [4]. Viloyatda iqtisodiy faol aholi soni 2020-yil holati bo'yicha 1104,1 ming kishini tashkil etadi. Shundan iqtisodiyotda band aholi 982,0 ming kishi, ishsizlar esa 122,0 ming kishiga yetadi va viloyatda ishsizlik darajasi 11,1 foizni tashkil etgan. Ushbu raqamlar 2022-yilga kelib viloyatda iqtisodiy faol aholi soni 1105,3 ming kishi, shundan iqtisodiyotda band aholi 1003,0 ming kishi, ishsizlar esa 102,3 ming kishi. Ishsizlik darajasi viloyatda 2022-yilda 9,3 foiz bo'lib, 2020-yilga nisbatan 2,1 foizga pasaygan [3].

2-jadval

Surxondaryo viloyati tumanlari bo'yicha mehnat resurslari soni
(2023-yil, 1-yanvar holatiga ko'ra)

Ma'muriy-hududiy birliklar	Jami mehnat resurslari soni (ming kishi)	Iqtisodiy faol aholi soni (ming kishi)	Iqtisodiy nafaol aholi soni (ming kishi)
Surxondaryo viloyati	1 468,9	1 105,2	363,6
Termiz sh.	125,8	85,6	40,1
Angor	74,2	57,7	16,5
Bandixon	36,2	23,4	12,7
Boysun	63,6	48,3	15,2
Denov	209,9	165,3	44,6
Jarqo'rg'on	120,9	89,9	30,9
Qiziriq	59,1	46,2	12,9
Qumqo'rg'on	125,9	90,4	35,4
Muzrabod	74,9	55,8	19,1
Oltinsoy	98,2	75,6	22,5
Sariosiyo	112	86,1	25,9
Termiz	54	42,9	11,1
Uzun	93,1	71,5	21,5
Sherobod	106,9	81,7	25,2
Sho'rchi	113,6	84,3	29,2

Izoh: Jadval O'z.R. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faol aholi orasida yuqori ko'rsatkich Denov tumani (165,3 ming kishi) hissasiga to'g'ri kelib, undan keyingi o'rinlarda Termiz shahri (85,6 ming kishi), Qumqo'rg'on (90,4 ming kishi), Jarqo'rg'on (89,9 ming kishi), Sariosiyo (86,1 ming kishi) tumanlari turadi. Iqtisodiy faol aholi orasida Bandixon (23,4 ming kishi), Termiz (42,9 ming kishi) hamda Qiziriq (46,2 ming kishi) tumanlari viloyat bo'yicha eng oxirgi o'rinlarni egallaydi (2-jadval). Ishsizlik darajasi viloyat bo'yicha tumanlar kesimida deyarli teng bo'lib, faqat Muzrabot va Oltinsoy tumanlarida ishsizlik darajasi qolgan tumanlarga nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichga ega ekanligi bilan harakterlanadi. Umuman olganda viloyat mehnat resurslari salmog'i respublikaning qolgan viloyatlari mehnat resurslari salmog'i bilan jami aholiga nisbatan ulushi deyarli tengdir. Viloyat aholi sonida mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi ulushi yetarli darajada ekanligi hamda viloyatning demografik salohiyati yuqori ekanligi va bu demografik holat bir necha o'n yillikda saqlanib qolishini anglatadi.

Viloyat aholisi takror barpo bo'lish jarayoni juda yaxshi ko'rsatkichga ega ekanligi bilan hamohang tarzda mehnat resurslari salohiyatining yetarli bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu esa viloyatda qulay demografik vaziyatni yuzaga keltirganligi bilan tavsiflanadi.

XULOSA

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Surxondaryo viloyati aholisining tabiiy o'sish ko'rsatkichi yuqoriligi ekanligi viloyatda mehnat resurslarining ham salmog'ining oshib borishida muhim omil bo'lmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Surxondaryo viloyatining mehnat resurslarini o'rganish orqali yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, viloyat mehnat resurslari salmog'ining yuqori bo'lishiga hamda iqtisodiy faol aholi ulushining yuqori ekanligiga qaramasdan, iqtisodiyotda band aholi soni kam. Buning asosiy sababi qilib viloyatning Respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan iqtisodiyotida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ancha sust rivojlanayotganligi hudud aholisi mehnat resurslaridagi bandlik darajasi past bo'lishiga olib kelgan. Shu bilan bir qatorda Surxondaryo viloyati rivojlanish ko'rsatkichlari hamda aholining turmush darajasi qolgan viloyatlarga qaraganda pastroq ekanligi viloyat aholisining tug'ilish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatgan. Bu esa hudud aholisining tabiiy o'sish sur'atining yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan.

Viloyat aholi takror barpo bo'lishi yaxshi ko'rsatkichga egaligi hamda mehnat resurs salohiyati yuqori hududlardan biri ekanligi aholining bandlik darajasini oshirish va ulardan samarali foydalanish masalalari viloyatda dolzarb masala sifatida alohida e'tibor qaratilishiga olib keladi. Buning uchun esa hudud aholisining soni, dinamikasi, uning takror barpo bo'lishi, mehnat resurslari hamda ularning joylashuvi va davriy o'zgarishini chuqur ilmiy tadqiq etish, kelajak istiqbollari belgilab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmonov Q.X va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: Iqtisodiyot, 2014. - 364 b.
2. Ибрагимов Л.З. Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари – г.ф.д. диссертацияси автореферати, – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2022. – 63 б.
3. Pardayev N.S., Xursanov S.M. Surxondaryo viloyati mehnat resurslarining hududiy xususiyatlari. / Экономика и социум. №11(114), 2023. -B 338-341.
4. Pardayev N.S. Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati mehnat resurslaridagi o'zgarishlar. "Yangi O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani: Rivojlanish muammolari va istiqbollari". // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2023. – B. 185-188.
5. Sattorov A.U. Surxondaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari. Monografiya. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020.
6. Tojiyeva Zulkhumor and others. (2024). *Regional Characteristics in the Dynamics and Location of the Rural Population of the Republic of Uzbekistan*. E3S Web of Conferences 491, 04004 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449104004>
7. Tojiyeva Z.N, Ibragimov L.Z. Labour market and employment in Uzbekistan. In *Geografický časopis*, vol. 73, 2021. - P. 359-374. ISSN 00167193. Available: <https://doi.org/10.31577/geogrcas.2021.73.4.19>
8. Tojiyeva Z.N, Ibragimov L.Z. O'zbekistonda mehnat resurslari shakllanishi va aholi bandligi muammolari // *СамДУ Илмий ахборотномаси*, №3. Самарқанд, 2021. – Б. 137.
9. www.lex.uz
10. surxon.stat.uz